

“ORIENT FINANS” BANKNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID MUROJAATI

***Hurmatli hamkasblar,
qadrli Bank mijozlari va hamkorlari,
aziz do'stlar!***

Bu yil “Orient Finans” Bankining 15 yilligi nishonlandi, o'tgan 15 yil ichida Bank o'z oldiga qo'ygan yuksak natijalarga erishdi va rivojlandi. Bankda o'tkazilgan transformasiya jarayonlarining asosiy omillardan biri — bu bizning korporativ madaniyatimiz bo'lib, uning asosini halollik tashkil etadi. “Orient Finans” Bank o'z faoliyatida amaldagi qonunchilikka rioya qilib kelmoqda hamda biznes yuritishning yuksak standartlari — halollik, vijdonilik va ochiqlik tamoyillariga sodiq qolmoqda. Bank o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murosasiz (toqatsiz) munosabatda bo'lib jamiyatda korrupsiyaga qarshi madaniyatni oshirishga o'z hissasini qo'shishni burchi deb biladi. Ushbu tamoyillarga amal qilish maqsadida, Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati joriy qilingan bo'lib, u amaldagi qonunchilik hamda xalqaro ilg'or standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va barcha Bank xodimlari uning talablariga rioya qilishga majburdirlar.

Bank o'z mijozlari hamda hamkorlari bilan doimo yaxshi munosabatlarda bo'lishni xoxlaydi va ushbu munosabatlarda korrupsiyaviy harakatlar bo'lishini qoralaydi.

Bank o'z tizimida bo'lishi mumkin bo'lgan noo'rin xatti-harakatlar haqida o'z vaqtida ma'lumot olishga manfaatdordir va korrupsiya haqidagi gumonlar, sodir bo'lgan holatlar yoki korrupsiyaga oid qonunchilikni/siyosatni buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar to'g'risida xabarlar berilishini qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli, Bankda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni yuborish aloqa kanallari joriy qilingan bo'lib, ular orqali Bank xodimlari, mijozlar va istalgan uchinchi shaxslar o'z shikoyat yoki ma'lumotlarini berishlari mumkin.

“Orient Finans” Bank ilg'or bank texnologiyalarini amaliyotga joriy etish natijasida “inson omilini” kamaytirishga va shu orqali o'z biznes jarayonlarini yanada shaffof bo'lishiga hamda ularda korrupsiyaviy omillarni bo'lmasligiga doimo intiladi.

Biz halol biznes yuritishni hurmat qilamiz va Bank bilan ishlovchi barcha mijozlarimizni hamda hamkorlarimizni korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillariga rioya qilishlariga ishonamiz!